

NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Navoiy viloyatida kichik tadbirkorlik


2017-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz), birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2023 yilning 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **22 844** tani tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **2 372** taga ko‘paygan yoki **11,6 %** ga oshgan.- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **21,6** birlikni tashkil qildi.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo‘yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **22 844** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4 323** tani tashkil etdi

2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘pi Navoiy shahrida **4954** tani yoki jamiga nisbatan **21,7 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda*



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soninining har 1 000 aholiga nisbati, *birlikda*



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **21,6** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan **1,8** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1 000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **36,3** birlik, G'ozg'on shahrida **34,9** birlik, Navoiy shahrida **31,7** birlik, Karmana tumanida **27,1** birlik, Uchquduq tumanida **24,5** birlik, Konimex tumanida **24,2** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Navoiy viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1 000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko'rsatkich

Tomdi tumani – 36,3 birlik.

O'rtacha
ko'rsatkich

G'ozg'on shahri – 34,9 birlik.

Eng past
ko'rsatkich

Navoiy shahri – 31,7 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1 000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Tomdi tumanida **36,3** birlik, G'ozg'on shahrida **34,9** birlik, Navoiy shahrida **31,7** birlik, Karmana tumanida **27,1** birlik, Uchquduq tumanida **24,5** birlik, Konimex tumanida **24,2** birlik, Navbahor tumanida **20,6** birlik, Qiziltepa tumanida **19,3** birlik, Zarafshon shahrida **19,2** birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Tomdi
tumani
36,3

G'ozg'on
shahar
34,9

Navoiy
shahri
31,7

Karmana
tumani
27,1

Uchquduq
tumani
24,5

Konimex
tumani
24,2

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2021- y.

2022- y.

848	Navoiy sh.	666
411	Zarafshon sh.	386
140	G’ozg’on sh.	99
628	Karmana t.	515
226	Konimex t.	250
568	Qiziltepa t.	556
507	Navbahor t.	434
230	Nurota t.	313
198	Tomdi t.	174
436	Uchquduq t.	376
643	Xatirchi t.	554

2022- yilda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da




2022- yilda hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Navoiy shahri – **15,4 %**, Qiziltepa tumani – **12,9 %**, Xatirchi tumani – **12,8 %**, Karmana tumani – **11,9 %**, Navbahor tumani – **10,0 %**, Zarafshon shahri – **8,9 %**, Uchquduq tumani – **8,7 %**, hissalariga to‘g‘ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




2022 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida **11 369** ta, sanoatda **961** ta hamda qurilishda **180** ta yangidan tashkil etilgan.


Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma Navoiy shahrida **666** ta, Qiziltepa tumanida **556** ta hamda Xatirchi tumanida **554** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022 yillar davomida jami **22 357** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **8 467** (yoki **37,8 %**) ta, sanoat sohasida – **4 714** ta(yoki **21,1 %**), xizmatlar sohasida - **4 673** ta(yoki **21,0 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **3201** ta (yoki **14,3 %**) va qurilish sohasida – **1302** ta(yoki **5,8 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxona va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoq dan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	419	19,6
Parrandachilik	219	10,2
Aralash qishloq xo‘jaligi	219	10,2
Qorako‘l zotli qo‘ylarni ko‘paytirish	166	7,8
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	155	7,3
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	569	19,5
Ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish	295	10,1
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	128	4,4
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	121	4,1
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	112	3,8
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	257	38,9
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	142	21,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	73	11,1
Elektrotexnik va montaj ishlari	42	6,4
Qurilish loyihibalarini ishlab chiqish	42	6,4
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	1042	21,2
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	833	17,0
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	408	8,3
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	351	7,2
Ixtisoslashgan do‘konlarda non mahsulotlari, undan tayyorlangan va shakarli qandolat mahsulotlari chakana savdosi	246	5,0
Xizmatlar sohasi		
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	466	16,7
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	315	11,3
Avtomobil transportida yuk tashish	232	8,3
Restoralar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazishi bo‘yicha xizmatlar	229	8,2
Sartaroshxonalar va go‘zallik salonlari xizmatlari	138	5,0

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Yuqorida jadval ma’lumotlari asosida tahlililar shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘ngi uch yilda barcha sohada yangi turdagи kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So‘ngi 3 yilda eng ko‘p savdo sohasining Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo‘nalishida **1 042 ta** yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgan bo‘lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **21,2 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so‘ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiylar natijasida, xizmatlar sohasining boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar, ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari va avtomobil transportida yuk tashish ham ko‘plab kichik korxona va mikrofirmalar ochilayotganligini ko‘rshimiz mumkin.

Shuningdek, sanoat sohasida so‘ngi yillarda asosan non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish, ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish, boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish va boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, qurilish sohasida esa ko‘proq yangi kichik korxona va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish hamda boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida ko‘proq tashkil etilmoqda.


Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mlrd so‘mda




Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mlrd so‘mda




Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, trln so‘mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo‘jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mld. so'm



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 300,7** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Karmana tumanida (**1 730,2** mld. so'm), Navoiy shahrida (**1 383,0** mld. so'm), Qiziltepa tumani (**813,2** mld. so'm), Xatirchi tumani (**624,6** mld. so'm) va Zarafshon shahri (**434,4** mld. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. G'ozg'on tumanida (**44,9** mld. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022 - yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiylajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **7,5 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Nurato tumani (**100 %**), Tomdi tumani (**100 %**), Uchquduq tumani (**100 %**), Xatirchi tumani (**99,6 %**), Zarafshon shahri (**99,1 %**), G'ozg'on tumani (**67,4 %**), Navbahor tumani (**48,5 %**), Qiziltepa tumani (**45,3 %**), Konimex tumani (**36,6 %**) va Karmana tumani (**19,1 %**) viloyatlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022 - yilning yanvar - dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



2017 -2022 - yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 625,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **76,3 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **109,8 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Navoiy shahri (**1 056,7** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**676,6** mlrd. so'm), Karmana tumani (**637,9** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**568,8** mlrd. so'm), Zarafshon shahri (**551,7** mlrd. so'm), Navbahor tumani (**427,6** mlrd. so'm) hamda Nurota tumani (**422,9** mlrd. so'm) ga qayd etildi.

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **8 112,6** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **42,6 %**ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **124,7 %**ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Zarafshon shahri (**2 367,3** mlrd. so'm), Karmana tumani (**1 515,9** mlrd. so'm), Navoiy shahri (**1 243,2** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (**875,8** mlrd. so'm), Tomdi tumani (**506,7** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (**451,7** mlrd. so'm) hamda Navbahor tumani (**357,1** mlrd. so'm) ga qayd etildi.

2017 -2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2022 - yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2017 - 2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mldr. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **15 686,1** mldr. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **97,6** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **104,0** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Xatirchi tumani (**4 606,4** mldr. so'm), Qiziltepa tumani (**3 160,7** mldr. so'm), Navbahor tumani (**2 508,9** mldr. so'm), Karmana tumani (**2 166,2** mldr. so'm), Nurota tumani (**1 481,1** mldr. so'm) hamda Kanimex tumani (**771,3** mldr. so'm) da qayd etildi.

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2017 -2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mld. so‘mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **1 0448,5** mlrd. so‘mmi yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **85,4 %** ini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilga nisbatan **124,7 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mld. so‘m

Navoiy sh.	2890,8
Karmana t.	1702,9
Xatirchi t.	1343,7
Qiziltepa t.	1285,2
Zarafshon sh.	1082,6
Navbahor t.	660,6
Uchquduq t.	549,4
Nurota t.	429,9
Konimex t.	312,0
G‘ozg‘on sh.	113,6
Tomdi t.	77,7

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Navoiy shahri (**2 890,8** mlrd. so‘m), Karmana tumanida (**1 702,9** mlrd. so‘m), Xatirchi tumani (**1 343,7** mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (**1 285,2** mlrd. so‘m), Zarafshon shahri (**1 082,6** mlrd. so‘m) va Navbahor tumani (**660,6** mlrd. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko‘rsatish faoliyati

2017 - 2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022 - yilning yanvar -dekabrida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko‘rsatishi hajmi, mldr. so‘mda


Navoiy sh.		1 394,2
Karmana t.		830,2
Qiziltepa t.		644,1
Xatirchi t.		610,3
Zarafshon sh.		580,0
Navbahor t.		421,3
Nurota t.		339,6
Uchquduq t.		254,3
Konimex t.		181,4
Tomdi t.		106,9
G‘ozg‘on sh.		14,1

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5 376,4** mldr. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **58,1** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **113,0** % ni tashkil qildi.


Hududl kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Navoiy shahri (1 394,2 mldr. so‘m), Karmana tumani (830,2 mldr. so‘m), Qiziltapa tumani (644,1 mldr. so‘m), Xatirchi tumani (610,3 mldr. so‘m), Zarafshon shahri (580,0 mldr. so‘m), Navbahor tumani (421,3 mldr. so‘m) va Nurota tumani (339,6 mldr. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2017 - 2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022 - yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar)




■ hajmi ■ foizi

2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **53,3** million AQSH dollarini yoki umumiyligida eksport hajmining **90,0 %** ni tashkil etdi.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Konimex, Nurota va Tomdi tumanlarida – **100 %**, Zarafshon shahrida – **99,5 %**, Uchquduq tumanida – **99,1 %**, Xatirchi tumanida – **74,6 %**, G'ozg'on shahrida – **24,9 %**, Qiziltepa tumanida – **19,1 %**, Karmana tumanida – **16,1 %** va Navbahor tumanida – **10,5 %**, eng past ko'rsatkich Navoiy shahrida – **1,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2017 - 2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **223,9** million AQSH dollarini yoki jami importning **34,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da


2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi G'ozg'on shahrida, Nurota, Tomdi va Uchquduq tumanlarida – **100,0 %**, Zarafshon shahrida – **99,5 %**, Xatirchi tumanida – **84,9 %**, Konimex tumanida – **76,4 %**, Qiziltepa tumanida – **42,9 %**, Navoiy shaxrida – **30,5 %** ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarininig transport faoliyati




2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **9,2 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,4 %** ni tashkil qildi.



2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **40,0 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil qildi.




2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,1 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,4 %** ni tashkil qildi.



2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiyligi hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **87,9 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,5%** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil IV chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnoma da **951** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **456 (47,9%)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **452 (47,6%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **43 (4,5%)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **44,1 % (419 ta)**, xizmatlar sohasida – **23,6 % (224 ta)**, sanoatda – **15,0 % (143ta)**, qurilishda – **8,9 % (85 ta)** , qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **8,4 % (80ta)** ni tashkil etdi.

2022- yil IV chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022 - yil IV chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Navoiy shahri (219 ta), Qiziltepa tumani (**151** ta), Karmana tumani (**139** ta), Xatirchi tumani (**123** ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022 - yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2022- yilning IV choragida o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtissodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi xizmatlar sohasida – **50,5 %** ni, savdoda – **49,6 %**ni, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **47,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi qurilishda – **51,8 %** ni qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – **51,3 %** ni, sanoatda – **49,6 %** ni, savdoda– **48,0 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko‘p ulushi sanoatda – **8,4 %** ni, xizmatlar sohasida – **7,3 %** ni, qurilishda – **4,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022 - yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning IV choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **50,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **50,0 %** ni, xizmatlar sohasida – **49,1 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **51,0 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **50,0 %** ni, savdoda – **47,3 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **7,7 %** ni, qurilishda – **7,0 %** ni, xizmatlar sohasida – **6,7 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	37,2	58,7	4,1
Band bo‘lganlar soni	19,1	77,3	3,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	27,4	70,0	2,6
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	24,7	71,8	3,5
Raqobat muhiti	37,0	61,0	2,0

	Yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqboli		
	Ko‘payish (yaxshilanish*)	o‘zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiyligi aylanmasi	37,1	59,5	3,4
Band bo‘lganlar soni	20,8	76,3	2,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	25,4	71,6	3,0
Moliyaviy mablag‘lar: o‘z, kredit va qarz mablag‘lari	25,1	70,9	4,0
Raqobat muhiti	35,3	61,8	2,9

* Faqat raqobat muhitiga tegishli


Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2022 - yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o‘zgarishlar, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

**2022 - yilning IV choragida biznesga ishonch muhitini baholash,
yaqin 3 oyda o‘zgarishlar istiqqboli, % da**



■ ko‘payish (yaxshilanish*) ■ o‘zgarishsiz ■ kamayish (yomonlashish*)

* Faqat raqobat muhitiga tegishli